

UO'K: 35:2428

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIGA GIYOHVANDLIK VOSITALARI
VA PSIXOTROP MODDALAR NOQONUNY KIRIB KELISHINING
OLDINI OLISH CHORALARI**

Xaydarov R., Aripov S, Abduganiyev B.

(O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi)

Annotatsiya. *Maqolada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 171-son qarori bo'yicha bojxona organlari tomonidan respublikaga giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy kirishiga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yoritilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga 2021-2023-yillar mobaynida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar noqonuniy kirib kelishining oldi olinib, qo'zg'atilgan jinoiy va ma'muriy ishlar soni, tovarlar qiymati kesimida baholanib, yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, bojxona organlari, bojxona hududi, bojxona xizmati, bojxona kodeksi, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, jinoiy ishlar, ma'muriy ishlar.*

Аннотация: *В статье описывается проводимая таможенными органами по противодействию контрабанде наркотических средств и психотропных веществ в соответствии с требованиями Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по эффективной организации деятельности государственной системы предупреждения и действий в чрезвычайных ситуациях Республики Узбекистан» 171 от 29 апреля 2023 года. В частности, оценено количество уголовных и административных дел о незаконном ввозе наркотических средств и психотропных веществ на таможенную территорию Республики Узбекистан за 2021-2023 годы.*

Ключевые слова: *Государственный таможенный комитет Республики Узбекистан, таможенные органы, таможенная территория, таможенная служба, таможенный кодекс, наркотические средства и психотропные вещества, уголовные дела, административные дела.*

Abstract: *The article describes the prevention of emergency situations in the Republic of Uzbekistan carried out by customs authorities to counter the smuggling of narcotic drugs and psychotropic substances in accordance with the requirements of the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures for the effective organization of the activities of the state system of prevention and action in emergency situations of the Republic of Uzbekistan" 171 dated April 29, 2023. In particular, the number of criminal and administrative cases on the illegal import of narcotic drugs and psychotropic substances into the customs territory of the Republic of Uzbekistan for 2021-2023 was estimated.*

Key words: *State Customs Committee of the Republic of Uzbekistan, customs authorities, customs territory, customs duties, customs service, customs code, narcotic drugs, psychotropic substances, criminal cases, administrative cases.*

“Asr vabosi” nomini olgan giyohvandlik insonning osuda hayotiga raxna solib, ongini o‘ziga bo‘ysundiruvchi zahri qotildir. Bu shunday qurolki, o‘z domiga ilintirgan odamni razolat dunyosiga yetaklaydi va bu jarayonda inson jamiyatdagi o‘rnini yo‘qota boshlaganini anglamay qoladi.

XXI asr inson uchun juda ko‘p salbiy unsurlarni olib keldi. Terrorizm va diniy ekstremizm, giyohvandlik, qurol-yarog‘, odam savdosi, fohishabozlik muammolari, missionerlar nayranglari shunday illatlar jumlasidandir.

So‘nggi yillarda narkomaniya bilan bog‘liq jinoyatlar jiddiy tashvish va xavotirlarni keltirib chiqarmoqda, ayniqsa, yoshlar bu jirkanch illatning asosiy girdobiga tushmoqda. Hozirgi kunda yurtimizdagi barcha manfaatdor idora va tashkilotlar, keng jamoatchilik dunyo bo‘yicha “Asr vabosi” deb tan olingan narkotik moddalarning g‘ayriqonuniy aylanishiga qarshi kurashishga keng jalb etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo‘yicha o‘zimizga xos va ta‘sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg‘unchi va zararli g‘oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma‘naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Sog‘lom turmush tarzini olib borayotgan kishi bilib-bilmay bu ko‘chaga kirib qolsa, o‘zining tinch, farovon va baxtli hayotini qora zulmatga aylantirishi ayni haqiqat. Giyohvand kishi nafaqat o‘ziga, balki yaqinlariga ham to‘xtovsiz azob beradi [1].

Undan tug‘ilajak farzandlar esa ota-onasining xatosi oqibatida bir umrga majruhlik qismatiga muhtalo bo‘ladilar. Zero, faqat sog‘lom ota-onadagina sog‘lom zurriyot dunyoga keladi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan o‘tkazilgan monitoringlar natijasiga ko‘ra Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz aholisining 15 yoshdan 64 yoshgacha bo‘lgan hamda umrida hech bo‘lmaganda bir marta giyohvandlik vositalari qabul qilgan qismi 2,21 million nafarni tashkil qiladi. Mazkur regionda giyohvandlik vositalarini inyeksion tarzda iste‘mol qiluvchilar soni 338 000 kishini tashkil qilib, ularning 7% ITS (VICH) infeksiyasi bilan kasallangan bemorlardir [2].

Bojxona organi xodimlari giyohvandlik vositalarini respublikaga kirishini oldini olishga qarshi kurashishni O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 246-moddasiga asosan amalga oshiradilar. Unga ko‘ra kontrabanda, ya‘ni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, kuchli ta‘sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, portlovchi moddalar, radioaktiv materiallar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog‘, o‘qotar qurol yoki o‘q-dorilarni, shuningdek giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni yoki diniy ekstremizm,

separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish hisoblanadi [3].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 171-son qarorining 2-ilovasida "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining funksional quyi tizimi doirasidagi aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha funksiyalari belgilangan [4]. Ushbu sxemadagi vazifalar vazirlik va idoralar hamda boshqa tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining Nizomiga asosan amalga oshirilmoqda. Qarorga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi aholi va atrof tabiiy muhit uchun radiatsiyaviy, kimyoviy, bakteriologik (biologik), yong'in xavfini tug'diradigan tovarlarning O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi va hududidan olib chiqib ketilishini nazorat qilish va hisobini yuritish vazifasi yuklatilgan.

Ushbu yo'nalishdagi Davlat bojxona qo'mitasining vazifalaridan biri respublikaga giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonuniy olib kirilishi, undan olib chiqilishi hamda muomalada bo'lishi ustidan nazorat o'rnatish hamda ularning noqonuniy aylanuviga qarshi keskin kurashish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning olib kirilishi, olib chiqilishi hamda muomalada bo'lishi bir qator xalqaro va milliy qonunchilik normalari bilan tartibga solingan.

Giyohvandlik vositalari muomalasini tartibga soluvchi xalqaro darajadagi me'yoriy hujjat bu "Giyohvandlik vositalari to'g'risida" Yagona Konvensiya hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 24-fevraldagi 30-I-sonli "Giyohvandlik vositalari to'g'risidagi Yagona Konvensiyaga qo'shilish haqida"gi qaroriga asosan qo'shilgan [5].

Milliy darajada giyohvandlik vositalari muomalasini tartibga solish O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuniga va boshqa qonunchilikka oid tartibga solingan. O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasiga binoan giyohvandlik (narkotik) vositalari - giyohvandlik vositalari ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan preparatlar va o'simliklar tushuniladi. Psixotrop moddalar esa psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalardir. Oxirgi paytlarda respublikamizda yoshlar o'rtasida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar iste'moli keskin ravishda ko'paydi. Ushbu preparatlar giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari hisoblanib, kimyoviy tuzilishi va

xossalariga ko'ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga o'xshash, ular singari ruhiyatga faol ta'sir etuvchi, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalardir [6].

O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyoda joylashuvi va giyohvandlik uning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni yetishtiruvchi Afg'oniston Respublikasi bilan chegaradosh ekanligi shunday tovarlarning chegara orqali harakatida asosiy xavfni tashkil qiladi. Bu borada dunyo hamjamiyati ko'p marta bong urishi bilan bir qatorda Rossiya, Yevropa, AQSH kabi davlatlarning ilmiy maqolalarida aniq yoritib berilgan [7].

Mazkur holatlar O'zbekiston Respublikasining giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni Afg'oniston Respublikasidan Rossiya, Yevropa davlatlariga noqonuniy tashib o'tilishida tranzit davlat sifatida rol o'ynashini keltirib chiqarishi mumkin [8].

O'zbekiston Respublikasini giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni noqonuniy olib o'tilishda tranzit davlat vazifasini o'tashini oldini olish, shuningdek respublika aholisini giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning salbiy ta'sirlaridan himoya qilish borasida bojxona organlari tomonidan muayyan ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrda qabul qilingan "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o'tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo'lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to'g'risida"gi qarori bilan bojxona chegarasidan olib o'tilishi, muomalaga kiritilishi taqiqlangan va cheklangan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar ro'yxati tasdiqlangan.

Jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy foydalanishi uchun psixotrop moddalarni davolash kursi doirasida olib kirish va olib chiqilishiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ruxsat beriladi.

Ayrim fuqarolar ushbu me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga rioya qilmasdan, bojxona nazoratidan yashirincha psixotrop moddalarni respublika hududiga olib kelishga urinish holatlari ham amaliyotda ko'p uchraydi [9].

O'zbekiston Respublikasiga giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy olib kirilishiga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan ishlar tahlil qilindi [10].

Tahlil natijalariga 2023-yilda holatlar soni qolgan yillarga nisbatan 1,2 marta, miqdor jihatidan 24-45 marta ko'p miqdorda bo'lgan. Bu holat bilan giyohvandlik vositalarini noqonuniy olib kirilishida aniqlangan holatlar va ularning miqdorlari yildan-yilga ortib borish dinamikasida o'sayotganligini ko'rish mumkin.

1-jadval

Noqonuniy tarzda opiy va heroin giyohvandlik vositalarini respublikaga olib kirishga urinish bo'lganda ushlangan holatlar

Holatlar/yillar		2021	2022	2023
Jami	Holatlar	142	141	171

	soni			
	Miqdor	194	367	8 793
		157	264,4	969

Shuningdek, aynan shu davr mobaynida gashish va marixuanani noqonuniy tarzda respublikaga olib kirishga urinish bo'lganda ushlangan holatlarning tahlili ham aniqlangan, holatlar va ularning miqdori yildan yilga ortib borayotganligini ko'rsatmoqda. 2023-yilda holatlar soni qolgan yillarga nisbatan 1,1-1,3 marta, miqdor jihatidan ham 1,1-1,3-marta ko'p miqdorda bo'lgan. Bu holat yildan yilga holatlar aniqlash dinamikasi o'sish ko'rsatkichida ekanligini ko'rsatmoqda. 2023-yilda aniqlangan opiy va heroin giyohvandlik vositalarini respublikaga olib kirishga urinish bo'lganda ushlangan holatlar keskin tarzda ko'p bo'lishiga sabab, 1 ta holatda 8 000 kg.dan ziyod ko'knori giyohvandlik moddasini aniqlanganligi bilan tushuntiriladi.

2-jadval

Noqonuniy tarzda gashish va marixuanani respublikaga olib kirishga urinish bo'lganda ushlangan holatlar

Holatlar/yillar		2021	2022	2023
Jami	Holatlar soni	324	268	347
	Miqdor	327 297,3	271 844	337 266,3

2021-2023-yillar mobaynida psixotrop moddalarni noqonuniy tarzda respublikaga olib kirishga urinish bo'lganda ushlangan holatlarning tahliliga ko'ra, 2023-yilda holatlar soni 2021-yilga nisbatan 2 martaga, 2022-yilga nisbatan qariyb 3 martaga kamaygan, miqdor jihatidan ham 2023-yilda 2021-yilga nisbatan 4 martaga, 2022-yilga nisbatan qariyb 5 martaga kamaygan. Bu holat yildan yilga holatlarni aniqlash dinamikasi pasayish ko'rsatkichida ekanligini ko'rsatmoqda.

3-jadval

Noqonuniy tarzda psixotrop moddalarni respublikaga olib kirishga urinish bo'lganda ushlangan holatlar

Holatlar/yillar		2021	2022	2023
Jami	Holatlar soni	36	43	18
	Miqdor	4592,51	5422,54	1033,1

Bojxona organlari respublika hududiga giyohvandlik vositalarini noqonuniy kirib kelishini oldini olishda ko'rik rentgen qurilmalari, kinologiya xizmatidan keng foydalanadilar.

Ko'rik rentgen qurilmalari bu bojxona nazoratida qo'llaniladigan texnika vositalarining asosiy guruhlaridan biri hisoblanadi. Bu qurilmalar qo'l yuki, bagaj va o'rta hajmdagi yuklarni ochmay turib vizual nazorat qilish imkonini beradi. Bu qurilmalarda tasvirni baholash maqsadida bir qancha funksiyalar ko'zda tutilgan bo'lib, ular yordamida barcha buyumlarni bir-biridan farqlash mumkin bo'ladi. Natijada rangli monitorida turli moddalardan tashkil topgan giyohvandlik vositalari o'ziga xos rangda ko'rinadi. Olib borilgan tahliliy ma'lumotlar natijasida bir qator

xulosalar qilish mumkin. Jumladan, bojxona hududiga giyohvandlik vositalarini noqonuniy kirib kelishini oldini olish bo'yicha eng oxirgi rusumdagi nazoratning texnik vositalarini amaliyotga joriy qilish;

bojxona hududiga giyohvandlik vositalarini noqonuniy kirib kelishini oldini olish bo'yicha kinologiya xizmatidan keng foydalanish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 171-son qarori doirasida Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan Davlat bojxona qo'mitasi o'rtasida giyohvandlik vositalarini noqonuniy kirishi, saqlanishi va realizatsiyasini oldini olish bo'yicha "Yagona darcha" bojxona axborot tizimi orqali elektron ma'lumotlar almashinuvini joriy qilish;

chegara bojxona postlarida Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan Davlat bojxona qo'mitasi o'rtasida rejali favqulodda vaziyatlarda, shu jumladan kuchli ta'sir ko'rsatadigan zaharli moddalar olib kirilishi va olib chiqilishi ustidan kuzatish va nazorat qilish xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish bo'yicha hamkorlikdagi o'quv mashg'ulotlari o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston yoshlari" forumidagi nutqi.

2. Birlashgan millatlar tashkilotining Giyohvandlik vositalari va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining yillik hisoboti.

3. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi 2012-XII-son Qonuni.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 171-sonli Qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 24-fevraldagi 30-I-sonli "Giyohvandlik vositalari to'g'risidagi Yagona Konvensiyaga qo'shilish haqida"gi qarori.

6. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi 813-I-sonli Qonuni.

7. Кабиров М.Х. Экспертное обеспечение оперативной деятельности таможенных органов Российской Федерации. Противодействие преступности в сфере незаконного оборота наркотиков в современных условиях. Сборник материалов круглого стола . г.Москва. 2017 г. стр. 68.

8. Рубцова М.В. Роль таможенных органов в борьбе с контрабандой наркотиков. Противодействие преступности в сфере незаконного оборота наркотиков в современных условиях. Сборник материалов круглого стола. г.Москва. 2017 г. стр. 104.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 12-noyabrdagi "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o'tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo'lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to'g'risida"gi 330-sonli qarori.

10. Davlat bojxona qo'mitasi rasmiy sayti bazasi statistik ma'lumotlari <https://customs.uz/uz/news/view?id=8086/>